



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## “Yashil Iqtisodiyot”: Mazmuni, Vazifalari, Tamoyillari Va Jamiyat Hayotidagi O‘Rni

**Ravshan Xidoyatov**

JizPI “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida dotsenti, i.f.n.

**Ziyovuddin Xidoyatov**

JizPI “Energetika va radioelektronika” fakul’teti, 402-21 EE guruxi talabasi

### ANNOTATSIYA

Yashil iqtisodiyot – bu insoniyat va tabiat o‘rtasidagi uyg‘un o‘zaro ta’sirni qo‘llab-quvvatlaydigan va bir vaqtning o‘zida har ikkala ehtiyojni birday qondirishga harakat qiladigan iqtisodiyotning metodologiyasidir. Yashil iqtisodiy nazariyalar odamlar va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ko‘plab g‘oyalarni qamrab oladi. Yashil iqtisodchilar barcha iqtisodiy qarorlar uchun asos ekotizimga bog‘liq bo‘lishi kerakligini va tabiiy kapital va ekologik xizmatlar iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydilar. “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasida salomatlik va ijtimoiy tenglikni yaxshilashga, shuningdek, atrof-muhitga zararli ta’sirlar va ekologik tanqislikni sezilarli darajada kamaytirishga olib keladigan jarayonlar haqida gap boradi.

**Kalit So‘Zlar:** Yashil iqtisodiyot, ekologiya, tabiat, insoniyat, atrof-muhit, resurslar, yashil o‘shish, iqlim o‘zgarishlari, eko innovatsiya, organik qishloq xo‘jaligi, energiya samaradorligi.

Ma’lumki, ekologik muammolar insonlarning hayoti, ularning jismoniy va ruhiy xolatini xavf ostida qoldirayotgan muammolardan biridir. Hech kimga sir emaski, jadal sanoatlashish va insonlarning antropogen ta’siri natijasida atrof-muhitga jiddiy shikast etmoqda.

Bunday ulkan mas’uliyatni yaxshi his etgan olimlar, ekologik ekspertlar, eko iqtisodchilar atrof-muhitni asrashga doir bir qator samarali loyihalar va konsepsiyalarni tavsiya qilmoqda. Hozirgi tezkor davr talabini hisobga oladigan bo‘lsak, eko iqtisodiyotga eskicha qarash bilan yondashib bo‘lmaydi. Qadimgi “resurs iqtisodiyoti modeli” katta xarajatlarga va unumdorlikning pasayishiga olib keladi. Dunyoda hozirgi bo‘layotgan inqirozlar ushbu modelning ko‘rsatkichlari bo‘lib, nihoyat, yangi “Yashil iqtisodiyot” -modeli g‘oyasini shakllantiradi. Bunda moddiy farovonlik muqarrar ravishda ortib borayotgan ekologik xavflar, ekologik defitsitlar va ijtimoiy tengsizliklar bilan ta’minlanmaydi. SHu kabi masalalarning echimini o‘zida mujassamlashtirgan yangi eko iqtisodiy konsepsiya ishlab chiqilmoqda.

Ana shunday loyihalardan biri bu “Yashil iqtisodiyot” modelidir. Yashil iqtisodiyot atamasi 1989 yilda britaniyalik atrof-muhit iqtisodchilari tomonidan fanga kiritilgan bo‘lib, ba’zida “Yashil o‘shish” atamasi bilan ham birga ishlatiladi. Yashil iqtisodiyot – bu insoniyat va tabiat o‘rtasidagi uyg‘un o‘zaro ta’sirni qo‘llab-quvvatlaydigan va bir vaqtning o‘zida har ikkala

ehtiyojni birday qondirishga harakat qiladigan iqtisodiyotning metodologiyasidir.

YAshil iqtisodiy nazariyalar odamlar va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liq bo'lgan ko'plab g'oyalarni qamrab oladi. YAshil iqtisodchilar barcha iqtisodiy qarorlar uchun asos ekotizimga bog'liq bo'lishi kerakligini va tabiiy kapital va ekologik xizmatlar iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. "YAshil iqtisodiyot" konsepsiyasi salomatlik va ijtimoiy tenglikni yaxshilashga, shuningdek, atrof-muhitga zararli ta'sirlar va ekologik tanqislikni sezilarli darajada kamaytirishga olib keladigan modeldir. SHunday qilib, yashil iqtisodiyotni eng oddiy ko'rinishida kam uglerodli. Resurslarni tejaydigan va ijtimoiy inklyuziv iqtisodiy model sifatida ko'rish mumkin.

BMT yashil iqtisodiyotni inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni yaxshilashga olib keladigan va atrof-muhitga salbiy ta'sirlar hamda uning buzilishi xavfini sezilarli darajada kamaytiradigan vosita sifatida qaraydi.

Bu iqtisodiyotning asosiy tamoyillari nimalardan iborat? "YAshil o'sish" mehnat bozori uchun qulaylik va imkoniyatdir. Bu esa o'z navbatida mumkin bo'lgan yashil o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. YAxshi ishlaydigan mehnat bozorlari yashil va tabiiy resurslardan tejamkor iqtisodiyotga o'tishni osonlashtirishning kalitidir. Barqaror iqtisodiyotga o'tish bandlik shakllari va ishchilarning kasbiy profillarida juda keskin o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Demak, bundan ko'rinadiki, "YAshil iqtisodiyot"ning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Ekologik qonunchilikni yanada rivojlantirish, havo, suv, tuproq va chiqindilarni boshqarishda eng muvaffaqiyatli tajribalarni qo'llash.
2. Organik qishloq xo'jaligi sektorini kengaytirish, mamlakatda organik mahsulotlarga sertifikatlarni joriy qilish va organik mahsulotlar importini oshirish.
3. YUqori ilmiy salohiyatga asoslangan eko-innovatsion echimlarni ilgari surish.
4. Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va moslashish choralari qo'llab-quvvatlash uchun qonunchilik va iqtisodiy vositalardan foydalanish.
5. SHaharlarda energiya samaradorligi bo'yicha chora-tadbirlarni joriy etish.
6. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va "yashil" ish o'rinlarini yaratish kabi qator masalalarda o'rta tashlanayotgan fikr-mulohazalarni izchil o'rganib, zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish "YAshil iqtisodiyot"ga o'tishni tezlashtiradi.

"YAshil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni bugungi kunda ayrim jabhalarda, xususan, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, qurilish kabi sohalarda ildamlab ketayotgani hech kimga sir emas. Masalan, Germaniya, Xitoy kabi davlatlarda elektron dvigatellardan foydalanib "elektromobil"larga o'tish jarayoni jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda.

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida mamlakatimizda "YAshil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026 yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish choralari ko'rilishi nazarda tutilgan.

Mamlakatimizda "YAshil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4 oktyabrda tasdiqlangan "2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi. "YAshil iqtisodiyot"ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030 yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari

2010 yil darajasidan o'n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi<sup>1</sup>.

Prezidentimiz Koreya Respublikasida o'tkazilgan "YAshil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030" ikkinchi xalqaro sammitida nutq so'zladi. Unda Prezidentimiz "Bugungi kunda ona tabiatning o'zi bizga yo'llayotgan ogohlik qo'ng'irog'iga beparvo bo'lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so'ngi 30 yilda o'rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko'tarildi. Mintaqamizdagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Bug'lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarini yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda "YAshil iqtisodiyot" borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo'lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo'q", deb ta'kidlagan edi. O'zbekistonda bu tizimni tez sur'atlar bilan joriy etishning bir qator sabablari bor. YA'ni, Jahon banki tahliliga ko'ra, Markaziy Osiyo mintaqasining demografik o'sishi tufayli 2050 yilda 90 million nafar aholining (qariyb 30 foizi) suv tanqisligiga duch kelishi, sug'orish uchun sarflanadigan suvga bo'lgan talab oshishi kutilmoqda. Yana bir muammo, bu Orol bo'yi muammosidir. Bu kabi masalalarni echishga qaratilgan "YAshil iqtisodiyot" konsepsiyasi doirasida bir qator chora-tadbirlar, ilmiy va amaliy loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Orolbo'yidagi ekologik inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish choralari ko'rilmoqda. 2022 yilda Prezidentimiz bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar va aholi hayoti bilan tanishish maqsadida tashrif buyurganida Orolbo'yining flora va faunasini yaxshilash bo'yicha besh yillik milliy dastur ishlab chiqish vazifasini qo'ydi. O'sha yili Mo'ynoqda 100 gektar "YAshil qoplama" barpo etildi.

Hozirda boshqa sohalarda ham keng qo'llanish imkoniyatiga ega bo'lgan "YAshil iqtisodiyot"ning energetika, suv tejamkorligi, quyosh batareyalari, aqlli svetaforlar kabi ko'plab sohalari mavjud. Ushbu strategiyaning asosiy mazmun-mohiyati ham elektr energiyasi, issiqlik energiyasi. Neft-gaz sohalarida tejamkor va qayta tiklanuvchi resurs manbalarini izlab topish va ulardan oqilona foydalanishdir.

Demak, xulosa qiladigan bo'lsak, hozirgi integrallashgan zamonda hamma narsalar bir-biriga bog'liq. Tabiatni asrash insonning kelajagini asrash demakdir. SHuning uchun bugungi kunda bizlar qayta tiklanadigan energiya manbalarini izlab topishimiz va undan maksimum foydalanishimiz darkor. Qolaversa, "YAshil iqtisodiyot" ko'p jihatdan ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liqligini hisobga olsak, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish barqarorlik va adolatli hayot jarayonining mazmunidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrda tasdiqlangan "2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi".
3. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X. Yashil iqtisodiyot. Darslik. –T.: Universitet, 2020. -262 b.
4. Barqaror taraqqiyot va tabiatshunoslik asoslari. Darslik. A.E.Ergashev va b. -T.: Baktria press, 2016. - 296 b.
5. Xidoyatov, R., & To'xtaev, Z. (2022). NEKOTORIYE ASPEKTY LIBERALIZATSII NOVOY UZBEKSKOY EKONOMIKI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 35.
6. [www.uznature.uz](http://www.uznature.uz) – O'zbekiston Respublikasi Davlat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasining rasmiy sayti
7. [www.minenergy.uz](http://www.minenergy.uz) - O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining rasmiy sayti.